



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI



12-avgust
2026

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi

“MAMLAKATIMIZDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENTNING ROLI”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya





IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 258 sahifa.
2026-yil, avgust*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.

KIRISH

EKOLOGIK QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA “YASHIL” TARAQQIYOT BORASIDAGI PARLAMENT NAZORATI



Xamzayev Abdushukur Xudoykulovich
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi
O'zbekiston ekologik partiyasi fraksiyasining rahbari

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Jahonda kechayotgan iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, suv resurslari tanqisligi, yerlarning degradatsiyasi va atrof-muhit ifloslanishi kabi ekologik tahdidlar barcha davlatlar oldida umumiy vazifalarni qo'yimoqda. Bu esa ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda barqaror rivojlanishning huquqiy asoslarini mustahkamlashni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilashni taqozo etmoqda.

“Yashil” taraqqiyotni ta'minlash zamon talablariga javob beradigan qonunchilik bazasini shakllantirish, uni muntazam takomillashtirib borish hamda qabul qilingan qonunlar ijrosi ustidan samarali parlament nazoratini ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir.

Muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan ekologik qonunchilik samaradorligini oshirish muhim omil hisoblanadi.

So'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini hayotga keng joriy etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning huquqiy poydevorini mustahkamlash hamda ularning ijrosini ta'minlashda parlamentning o'rni va mas'uliyati tobora ortib bormoqda.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash va “yashil” taraqqiyotga erishish har qanday davlatning puxta o'ylangan huquqiy siyosatiga bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, so'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda ekologik sohadagi qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Eng avvalo, 2023-yilda xalqimizning xohish-istaklari asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi muqaddimasidagi «mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirishga, hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib...» degan jumlar ham bu borada mamlakatimiz o'zining aniq va mustahkam pozitsiyasiga ega ekanini anglatadi. Bundan tashqari, Bosh Qomusimizda ijtimoiy, iqtisodiy huquqlar qatori «ekologik huquq» tushunchasi kiritildi.

Xususan, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqi, tabiiy boyliklarni asrab-avaylash hamda kelgusi avlodlar manfaatlarini ta'minlash davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Keyingi yillarda o'rmonlardan foydalanish, yaylovlarni muhofaza qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ekologik audit, gidrometeorologiya, organik mahsulotlar ishlab chiqarish, ichimlik suvi ta'minoti hamda suv resurslarini boshqarish sohalarida qabul qilingan qonunlar mazkur yo'nalishda yaxlit huquqiy tizimni shakllantirishga xizmat qildi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ekologik qonunchilikni takomillashtirishda quyidagi yo'nalishlar ustuvorlik kasb etdi:

birinchidan, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash;

ikkinchidan, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va oldini olish, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish;

uchinchidan, yerdan foydalanish va muhofaza qilish;

to'rtinchidan, yer osti boyliklaridan foydalanish va muhofaza qilish;

beshinchidan, suvdan foydalanish va muhofaza qilish;

oltinchidan, o'simlik dunyosidan foydalanish va muhofaza qilish;

yettinchidan, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish;

sakkizinchidan, atmosfera havosini muhofaza qilish qonunchiligi;

to'qqizinchidan, gidrometeorologiya sohasi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

2016–2025-yillarning o'zida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 30 ga yaqin qonun qabul qilinib, ular ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishning zamonaviy tizimini yaratish uchun poydevor bo'ldi.

Jumladan, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'rmon to'g'risida", "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to'g'risida", "Ekologik audit to'g'risida", "Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risida", "Organik mahsulotlar to'g'risida", "Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida", "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida", "Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi yaxlit va yangi tahrirdagi qonunlar hamda Suv kodeksining qabul qilinishi mamlakatimizda ekologik siyosatning huquqiy asoslarini yangi bosqichga olib chiqdi.

Mazkur qonunlar nafaqat tabiiy resurslarni muhofaza qilishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirdi, balki iqlim o'zgarishiga moslashish, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, biologik xilma-xillikni asrash hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining huquqiy poydevorini mustahkamladi.

Bugungi kunda ekologik qonunchilikning asosiy vazifasi faqat tabiatni muhofaza qilish bilan cheklanmaydi. U investitsiya siyosatini shakllantirish, resurslardan samarali foydalanish, "yashil" texnologiyalarni rag'batlantirish, iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish hamda aholining munosib hayot sifatini ta'minlashning muhim huquqiy omiliga aylanmoqda.

Mamlakatimiz xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida bir qator xalqaro hujjatlarga qo'shildi.

Xususan:

Qonunchilik palatasi majlislarida hukumat a'zolarining Qonunchilik palatasi deputatlari savollariga javoblarini eshitish — "Hukumat soati";

davlat organlari rahbarlarining o'z faoliyati masalalari yuzasidan axborotini eshitish;

Qonunchilik palatasi tomonidan davlat organlarining mansabdor shaxslariga qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi masalalari yuzasidan parlament so'rovi yuborish;

Qonunchilik palatasining tegishli qo'mitasi tomonidan davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish;

qonun hujjatlarining ijrosi holatini va huquqni qo'llash amaliyotini tegishli qo'mita tomonidan o'rganish hamda qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish;

deputatlik so'rovlari yuborish va boshqa shakllarda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi va uning deputatlari ham mazkur jarayonlarda faol ishtirok etmoqda.

2025-yil davomida Ekologik partiya fraksiyasi tashabbusi bilan ekologik masalalar yuzasidan 2 marotaba hukumat a'zolarining axboroti eshitildi va davlat organlarining mansabdor shaxslariga 3 marotaba parlament so'rovi yuborildi.

Shu bilan birga, fraksiya yig'ilishlarida sohadagi qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi yuzasidan 13 marotaba tegishli mansabdor shaxslarning axborotlari eshitildi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Fraksiyamiz Qonunchilik palatasi deputatlari bilan hamkorlikda kelgusida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunlarni tizimlashtirish, qonunlarda huquqiy tartibga solish mexanizmlarini aniq belgilashga qaratilgan qonun loyihalari ustida ish olib bormoqda.

Jumladan:

ekologik qonunchilikni tizimlashtirish va kodifikatsiyalashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya kodeksini maromiga yetkazish;

"Hayvonlarni shafqatsiz munosabatdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini;

"Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Chiqindilar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Atrof-muhit monitoringi to'g'risida"gi yangi qonun loyihasini ishlab chiqish oldimizda turgan ustuvor vazifalar hisoblanadi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xulosa o'rinda aytishimiz mumkinki, Yangi O'zbekistonda ekologik qonunchilikni takomillashtirish va "yashil" taraqqiyotni ta'minlash jarayonida parlament nafaqat qonun qabul qiluvchi oliy vakillik organi, balki qabul qilingan qonunlarning hayotga to'liq va samarali tatbiq etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshiruvchi muhim konstitutsiyaviy institut sifatida ham alohida o'rin tutadi.

Ishonchim komilki, mazkur xalqaro konferensiya doirasida bildiriladigan ilmiy yondashuvlar, amaliy takliflar va ilg'or tajribalar ekologik qonunchilikni yanada takomillashtirish, o'zaro tajriba almashish hamda barqaror va "yashil" taraqqiyot maqsadlariga erishish yo'lida muhim muvaffaqiyat maydoni bo'lib xizmat qiladi.

E'tiboringiz uchun rahmat!



MUNDARIJA

AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA EKOLOGIK TA'LIM, JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA SHAXSIY JAVOBGARLIK: 2025–2026-YILLARDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR TAHLILI.....	16
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich	
BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI MILLIY DARAJADA AMALGA OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA USTUVOR YO'NALISHLAR.....	24
Teshaboyev To'liqin Zakirovich	
YASHIL IQTISODIYOTNI IQTISODIY VA HUQUQIY QO'LLAB-QUVVATLASH, INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	31
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna	
TAKOMILLASHTIRISH: YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI	37
Shamsiddin Allayarov	
EKOLOGIYA SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	45
S. Sh. Utemuratova	
EKOLOGIK BARQARORLIK — YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUSTAHKAM POYDEVORI.....	49
G'afforov X. L.	
MENEJMENT VA BIZNES BOSHQARUVIDA EKOLOGIK, YONDASHUV, ESG TAMOIYILLARI, “YASHIL” STRATEGIYA VA KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARI	58
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich	
РОЛЬ ГРУППЫ ДЕПУТАТОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ДВИЖЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ	65
Алиханов Борий Батирович Сангинов Саидрасул Сайдакпарович	
YASHIL ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISH HAMDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL PARTIYALARNING GLOBAL AHAMIYATI.....	69
Qo'chqorov Islomjon Nurali o'g'li Xursanov Kamoljon Erkinjon o'g'li	
RESPUBLIKAMIZDA EKOLOGIK SIYOSAT VA XAVFSIZLIK MASALALARI.....	73
Raximov Oybek Raimovich Xofizov Baxriddin Turdievich	
AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA TA'LIM IMKONIYATLARI (STEAM YONDASHUVI MISOLIDA).....	76
N. Matkarimova	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR PARLAMENTINI MUHIM DEMOKRATIK INSTITUT SIFATIDA SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI VA ISTIQBOLDAGI REJALAR.....	80
Abdullayev Muxammadqodir Mashxur o'g'li Xushvaqtov Feruzbek Ilxom o'g'li	
СОТРУДНИЧЕСТВО ПАРЛАМЕНТА УЗБЕКИСТАНА С ННО В ПОВЫШЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НАСЕЛЕНИЯ	83
Сангинов Саидрасул Сайдакпарович	
OROLBO'YI MINTAQASIDA «SUV IQTISODIYOTI» VA «YASHIL OBLIGATSIYALAR» (GREEN BONDS) TIZIMINI YANADA RIVOJLANTIRISHDA PARLAMENT NAZORATI VA QONUNCHILIK MEXANIZMLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	87
Otamuratov Oybek Baxtiyorovich	



INKLYUZIV YONDASHUV ASOSIDA EKOLOGIK TARBIYANI TASHKIL ETISHNING IJTIMOIIY PEDAGOGIK IMKONIYATLARI.....	93
Xodjayeva Mohira Mirzahmadovna	
KORXONALARNING BARQAROR RIVOJLANISH TIZIMIDA EKOLOGIK VA IJTIMOIIY KO'RSATKICHLAR AUDITI.....	97
Akbarov Azizbek Abdusattarovich	
O'ZBEKISTONDA XALQARO BIZNESNING BARQAROR RIVOJINI TA'MINLASHDA MARKETING VA YASHIL INNOVATSIYALARNING ROLI VA AHAMIYATI.....	103
Sayfullayeva Nigora Fayzulla qizi	



O'ZBEKISTONDA XALQARO BIZNESNING BARQAROR RIVOJINI TA'MINLASHDA MARKETING VA YASHIL INNOVATSIYALARNING ROLI VA AHAMIYATI

Sayfullayeva Nigora Fayzulla qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti

E-mail: nigorasayfullayeva1001@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda xalqaro biznesning barqaror rivojlanishini ta'minlashda marketing va yashil innovatsiyalarning o'рни tahlil qilingan. O'zbekistonda biznes muhitini takomillashtirish, eksport salohiyatini oshirish hamda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash yo'nalishlaridagi jarayonlar yoritilgan. Yashil marketing, energiya tejamkor texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va innovatsion yechimlarning mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi jozibadorligi hamda raqobatbardoshligini oshirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, korxonalar vakillari ishtirokida o'tkazilgan so'rovnoma asosida marketing va sotuv faoliyatida qo'llanilayotgan ayrim yondashuvlar o'rganilib, eksport faoliyatini rivojlantirish hamda yashil innovatsiyalarni kengroq joriy etishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro biznes, yashil innovatsiya, yashil marketing, eksport, tadbirkorlik, raqobatbardoshlik, barqaror rivojlanish, biznes muhiti, energiya tejamkor texnologiyalar.

Abstract. This thesis analyzes the role of marketing and green innovations in ensuring the sustainable development of international business. It highlights current processes aimed at improving the business environment, increasing export potential, and supporting entrepreneurship in Uzbekistan. Particular attention is paid to the importance of green marketing, energy-efficient technologies, renewable energy sources, and innovative solutions in enhancing the attractiveness and competitiveness of products in international markets. In addition, based on a survey conducted among representatives of enterprises, selected approaches applied in marketing and sales activities are examined, and practical recommendations are proposed to promote export activities and expand the implementation of green innovations.

Keywords: international business, green innovation, green marketing, export, entrepreneurship, competitiveness, sustainable development, business environment, energy-efficient technologies.

Аннотация. В данном тезисе анализируется роль маркетинга и зеленых инноваций в обеспечении устойчивого развития международного бизнеса. Освещаются современные процессы, направленные на совершенствование бизнес-среды, повышение экспортного потенциала и поддержку предпринимательства в Узбекистане. Особое внимание уделяется значению зеленого маркетинга, энергоэффективных технологий, возобновляемых источников энергии и инновационных решений в повышении привлекательности и конкурентоспособности продукции на международных рынках. Кроме того, на основе опроса, проведенного среди представителей предприятий, изучены отдельные подходы, применяемые в маркетинговой и сбытовой деятельности, а также разработаны практические рекомендации по развитию экспортной деятельности и расширению внедрения зеленых инноваций.

Ключевые слова: международный бизнес, зеленые инновации, зеленый маркетинг, экспорт, предпринимательство, конкурентоспособность, устойчивое развитие, бизнес-среда, энергоэффективные технологии.

KIRISH

Hozirgi sharoitda biznes mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur fikrni asoslash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining quyidagi fikrlarini keltirish mumkin: "Yurtimizda bu soha ish o'рни, investitsiya, innovatsiya, raqobat, qo'shilgan qiymat va eksportni ko'paytirishga eng katta turtki berayotgan yo'nalishga aylandi. So'nggi besh yilda kichik va o'rta tadbirkorlar soni 2 karra ko'paydi. Ularda 10 million 500 ming odam – jami band aholining 74 foizi daromad topib, ro'zg'or tebratayapti. Iqtisodiyot



hajmining yarmidan ko'pi, sanoat va eksportning uchdan biri shu soha vakillari hissasiga to'g'ri kelayapti. Ushbu raqamlarning o'ziyoq mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun kichik va o'rta biznes qanchalik muhimligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

– Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash – bizning strategik yo'limiz¹, – deydi davlat rahbari.

Shu bilan bir qatorda, mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan normativ-huquqiy choralar izchil amalga oshirilmoqda. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-noyabrdagi PQ-4525-son "Mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida tadbirkorlik muhitini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar quyidagicha qayd etilgan: "So'nggi yillarda O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni yengillashtirish va rag'batlantirish maqsadida sohaga oid qator tartibotlar tanqidiy qayta ko'rib chiqilib, eskirgan, zamon talabiga javob bermaydigan byurokratik to'siq va g'ovlar bekor qilindi. Ko'rilgan choralar natijasida respublikada ishbilarmonlik muhiti yaxshilandi, tadbirkorlik subyektlari va xususiy investorlar uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Bunday ijobiy o'zgarishlar nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan ham keng e'tirof etilmoqda. Jumladan, Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasi tomonidan e'lon qilingan "Biznes yuritish — 2020" hisobotida O'zbekiston 69-o'rinni egallab, islohotlar miqyosi va samaradorligi bo'yicha dunyoning eng yaxshi 20 ta islohotchi davlati qatoridan joy oldi². Shu bilan bir qatorda, Harakatlar strategiyasi amalga oshgandan keyingi statistikaga nazar tashlanadigan bo'lsa, "2017–2020-yillarda respublikaning tashqi savdo aylanmasi 1,4 barobarga o'sdi, inflyatsiya darajasi 18,8% dan 11,1% gacha pasaydi, oltin-valyuta rezervlari 26,4 mlrd. dollardan 34,9 mlrd. dollargacha oshdi. O'zbekiston barcha eksport qilinadigan tovarlar va xizmatlar bo'yicha bojxona bojlarini bekor qildi, eksport va litsenziyalash tartibi amallarini soddalashtirdi, 60% import qilinuvchi tovarlar uchun bojxona bojlarining "no" stavkalarini belgiladi va import bojxona bojlari stavkalarini 6,45% gacha kamaytirdi. Islohotlar natijasida kichik biznes sektori sezilarli darajada o'sdi: 2016-yilda respublikada 27 ming, 2020-yilda esa 93 ming kichik tadbirkorlik subyektlari ro'yxatdan o'tkazildi"³.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda respublikada turli bino va inshootlarda, shuningdek, ta'lim obyektlarida quyosh panellaridan foydalanish hamda energiya tejamkor texnologiyalarga investitsiyalar kiritish amaliyoti kengayib bormoqda. Korxonalarda quyosh energiyasi bilan bir qatorda shamol energiyasidan foydalanish, issiqlikni qayta tiklash tizimlari, energiya tejamkor uskunalar, LED yoritish vositalari va aqlli energiya boshqaruvi kabi zamonaviy yechimlar ham joriy etilmoqda.

Mazkur texnologiyalar va yashil innovatsiyalarning xalqaro biznesdagi ahamiyati ularni marketing vositalari orqali samarali namoyish etish imkoniyati bilan ham bog'liq. Xorijiy bozorlarga mahsulot chiqarishda uning sifati, dizayni va tarkibi bilan bir qatorda ishlab chiqarish jarayonida resurslardan oqilona foydalanilgani, suv sarfining kamaytirilgani hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanilgani haqidagi ma'lumotlar ham iste'molchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, "100% Cotton", "Organic Cotton", "Produced with 40% less water" va "Made using Solar Energy" kabi belgilashlar mahsulotning ekologik xususiyatlarini aks ettirib, uning marketing qiymatini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Shu jihatdan, yashil innovatsiyalar va marketingning o'zaro uyg'unligi mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi jozibadorligi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda, mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Unga ko'ra, savdoni osonlashtirish va eksportni rag'batlantirishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha islohotlar mamlakatning xalqaro miqyosda yo'naltirilgan xususiy sektorini rivojlantirishga yordam beradi. Xorijiy investorlarning O'zbekistonga kirish qarorlari mamlakat ichida ham, O'zbekiston va uning qo'shnilari o'rtasida ham savdoni osonlashtiradigan islohotlarning muhimligini ta'kidlaydi. Xuddi shunday, mamlakatning kichik va o'rta biznes subyektlariga qo'shimcha yordam ularga xorijda yangi bozorlarni aniqlash va ularga kirishga yordam berishi mumkin. Shuningdek, so'nggi besh yil ichida mahalliy biznes muhitini uzoq

1 O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2025-yil 19-martdagi kichik va o'rta biznes vakillari bilan o'tkazgan uchrashuvdagi nutqidan parcha. <https://president.uz/oz/lists/view/7955>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-noyabrdagi PQ-4525-son "Mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-4602230?ONDATE=07.07.2023>

3 "Taraqqiyot strategiyasi" markazi tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamkorligida 2021-yil 5-oktyabrda o'tkazilgan "O'zbekiston: besh yil ichidagi jadal islohotlar" mavzusida xalqaro konferentsiya. <https://strategy.uz/index.php?news=1382&lang=uz>



vaqtdan beri tashvishga solib kelayotgan ayrim muammolarni, xususan, litsenziyalash va ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq muammolarni hal qilishda katta yutuqlarga erishildi. Shu bilan birga, biznes muhitining ayrim yo'nalishlarida, xususan, raqobat siyosatini amalga oshirish bilan bog'liq masalalarda takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Tahlil natijasida quyidagi asosiy muammolar aniqlandi:

raqobat siyosatini amalga oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurati;
axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga investitsiyalar hajmining yetarli darajada emasligi;
ishchi kuchida raqamli ko'nikmalarning yetarlicha rivojlanmaganligi;
barqaror infratuzilmaga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshirish zarurati;
atrof-muhitni muhofaza qilish standartlarini yanada takomillashtirish zarurati;
firmalar ichida yashil amaliyotlarni joriy etishga qaratilgan moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini kengaytirish zarurati.

Shu bilan bir qatorda, O'zbekistonning eksport salohiyatini yanada oshirish, yangi xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlari va mavjud muammolarni aniqlash maqsadida tuman va viloyatlarda faoliyat yuritayotgan korxonalar boshqaruvchilari o'rtasida "Mamlakatda eksport salohiyatini oshirish uchun – mahalliy korxonalarning o'zni qanchalik muhim?" nomli so'rovnoma olib bordik. So'rovnomada ishtirok etgan korxonalar vakillarining marketing va sotuv faoliyatida qo'llaydigan usullari o'rganildi.

Shulardan biri Turkiyada 2006-yilda o'z faoliyatini boshlagan ERSAG⁴ nomli kosmetika kompaniyasidir. Bu kompaniyaning asosiy marketing usullaridan biri bu tarmoqli marketingdir. Kompaniya 15 dan ortiq davlatlar bilan o'z tarmoqlari orqali faoliyat olib boradi. Kompaniyaning O'zbekistondagi vakillari so'rovnomada ishtirok etdi va mahsulotlarni sotish va eksport faoliyatiga oid marketing usullari haqida ma'lumot berdi.

Jumladan, menejer kompaniyadagi 12 yillik faoliyati davomida auditoriya uchun quyidagi usullarni qo'llashini aytib o'tdi:

tarmoqdagi mamlakatlarga turli assortimentdagi mahsulotlarning muntazam yetkazib berilishi;
mahsulotlarning O'zbekiston bozorida nisbatan hamyonbop narxlarda taklif etilishi;
to'g'ri auditoriya tanlanishi;
doimiy mijozlarni saqlab qolishda xodimlarning muomala madaniyatiga ustuvor ahamiyat berilishi;
chegirmalar;

kompaniyaga a'zo bo'lgan mijozlarga xaridlarda 30% va 50% chegirmalar;
xarid amalga oshirilgandan so'ng bonus va qo'shimcha sovg'alar taqdim etilishi;

ERSAG⁴ auditoriyasini yanada kengaytirish uchun mijoz taklif qiluvchilarga qo'shimcha moddiy rag'bat; tarmoqni kengaytirish va O'zbekistondagi masofadan faoliyat yurituvchi vakillarni qo'llab-quvvatlash va ularning sonini oshirish maqsadida xodimlar orasida turli davlatlarga sayohatlar tashkil etib berilishi.

Kompaniyada ko'p yillik tajribaga ega menejer hozirda ko'plab mijozlarga oflayn xizmatlarni ko'rsatishini va bu usul orqali mahsulotni yanada ommaga taqdim etish imkoni ortishini ta'kidlab o'tdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, xalqaro biznesning barqaror rivojini ta'minlashda marketing va yashil innovatsiyalar o'zaro bog'liq hamda bir-birini to'ldiruvchi muhim omillar ekanligi aniqlandi. Tahlil jarayonida energiya tejankor texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va yashil marketing vositalarining mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi jozibadorligi hamda raqobatbardoshligini oshirishdagi ahamiyati yoritildi. Shuningdek, korxonalar vakillari ishtirokida o'tkazilgan so'rovnoma asosida marketing va sotuv faoliyatida qo'llanilayotgan ayrim amaliy yondashuvlar o'rganildi hamda eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqildi.

Universitetlarda "Texnologiya transferi va tijoratlashtirish ofislari"ni tashkil etish — dastlab yetakchi OTMlarda pilot loyiha sifatida joriy qilish;

Mavjud 463 ta klasterning bir qismini universitetlar bilan rasmiy ilmiy-amaliy hamkorlik shartnomalari orqali "ilmiy-innovatsion klaster"ga aylantirish;

Xususiy sektor tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltirilgan mablag'larni soliq bazasidan chegirish mexanizmini joriy etish orqali R&D xarajatlarini rag'batlantirish;

"Raqamli O'zbekiston – 2030" va sun'iy intellekt strategiyasi doirasida tayyorlanayotgan kadrlarni klaster va korxonalarning amaliy ehtiyojlariga moslashtirish, ta'lim dasturlarini sanoat vakillari bilan birgalikda ishlab chiqish;

Eksportga yo'naltirilgan innovatsion mahsulotlar uchun davlat tomonidan xalqaro sertifikatlashtirish, diplomatik va marketing qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish.

4 <https://www.ersaglobal.uz/>



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash – bizning strategik yo'limiz [Elektron resurs]. – 2025. – 19 mart. – URL: <https://president.uz/oz/lists/view/7955> (murojaat sanasi: 08.08.2026).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-noyabrdagi PQ-4525-son “Mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4602230> (murojaat sanasi: 08.08.2026).
3. “O'zbekiston: besh yil ichidagi jadal islohotlar” mavzusidagi xalqaro konferensiya [Elektron resurs] // “Taraqqiyot strategiyasi” markazi. – 2021. – 6 oktabr. – URL: <https://strategy.uz/index.php?news=1382&lang=uz> (murojaat sanasi: 08.08.2026).
4. ERSAG Global Uzbekistan: rasmiy veb-sayt [Elektron resurs]. – URL: <https://www.ersaglobal.uz/> (murojaat sanasi: 08.08.2026).



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Maqsudov Hasan

2026. № 4-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

